
Farg'ona shahrida 200 mln. so'mga yaqin ish haqqilari undirib berildi

Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining 18.10.2022 yildagi qaroriga asosan qarzdor Farg'ona viloyati "Toza hudud" DUKdan 16 nafar ishchilar foydasiga jami 192 mln. so'm ish xaqqilarini undirish haqidagi ijro hujjati byuroning Farg'ona shahar bo'limi tomonidan ijroga qaratilib, qarzdorga ixtiyoriy muddat berilgan edi.

Qarzdor sud qarorini ijrosini ta'minlash chorasini ko'rmagach, byuro tomonidan olib borilgan majburiy ijro harakatlari natijasida 16.11.2022 yil kuni qarzdordan 192 mln. so'm ishchilarning oylik ish haqqilari undirilib, 16.07.2022 yilda 16 nafar undiruvchi ishchilarning bank plastik kartalariga o'tkazib berilishi ta'minlandi va 16 nafar fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklandi.

MIB Farg'ona shahar bo'limi

2022-11-19 20:15:09